



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2025-yil 1-son

VOLUME 5 / ISSUE 1 / 2025
ISSUE DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.5.1.

ISSN 2181-2179
DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.



Crossref
Content
Registration

MUASSIS:
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK
UNIVERSITETI

“Kriminologiya va jinoiy odil sudlov” ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2021-yil 18-martda 1160-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Ushbu jurnal O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:
O. Choriyev

Muharrirlar:
Y. Mahmudov, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova, Y. Yarmolik,
E. Mustafayev

Musahhih:
S. Rasulova

Texnik muharrir:
U. Sapayev

Dizayner:
D. Rajapov

Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.ccj.tsul.uz

E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1386.

Nashriyot litsenziyasi
№ 174625, 29.11.2023.

Jurnal 27.03.2025-yilda
bosmaxonaga topshirildi.
Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog‘i: 7
Adadi: 100. Buyurtma: № 71.

Bosmaxona litsenziyasi
29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

N. Salayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR

S. Samadov – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig‘i v.v.b.

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

D. Bazarova – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

MAS‘UL MUHARRIR

A. Otajonov – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

M. Rustambayev – O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor

F. Raximov – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

Q. Abdurasulova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori

V. Davlyatov – yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S. Niyozova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori

Sh. Xaydarov – Toshkent davlat yuridik universiteti professor v.b., yuridik fanlar doktori

R. Kabulov – O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

B. Umirzakov – O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

A. Baratov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar nomzodi

I. Astanov – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

B. Pulatov – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori



**УЧРЕДИТЕЛЬ:
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Криминология и уголовное правосудие» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 18 марта 2021 года с удостоверением № 1160.

Журнал создан при сотрудничестве с Правоохранительной академией Республики Узбекистан.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:
Й. Махмудов, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова, Е. Ярмолик,
Э. Мустафаев

Корректор:
С. Расулова

Технический редактор:
У. Сапаев

Дизайнер:
Д. Ражапов

Адрес редакции:
100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.

Тел.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Факс: (0371) 233-37-48.

Веб-сайт: www.ccj.tsul.uz

E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1386.

Издательская лицензия от
29.11.2023, № 174625.

Журнал передан в типографию
27.03.2025.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 7. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 71.

Лицензия типографии от
№ 174626, 29.11.2023.

Отпечатано в типографии
Ташкентского государственного
юридического университета.
100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Н. Салаев – доктор юридических наук, профессор кафедры уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

С. Самадов – врио начальника Правоохранительной академии Республики Узбекистан

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Д. Базарова – доктор юридических наук, профессор, заведующая кафедрой уголовно-процессуального права Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

А. Отажонов – доктор юридических наук, профессор, заведующий кафедрой уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

М. Рустамбаев – доктор юридических наук, профессор, начальник Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

Ф. Рахимов – доктор юридических наук, профессор Правоохранительной академии Республики Узбекистан

К. Абдурасулова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета

В. Давлятов – доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент

С. Ниёзова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета

Ш. Хайдаров – доктор юридических наук, и.о. профессора Ташкентского государственного юридического университета

Р. Кабулов – доктор юридических наук, профессор Академии МВД Республики Узбекистан

Б. Умирзаков – доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент Академии МВД Республики Узбекистан

А. Баратов – кандидат юридических наук, доцент Ташкентского государственного юридического университета

И. Астанов – доктор юридических наук, профессор Правоохранительной академии Республики Узбекистан

Б. Пулатов – доктор юридических наук, профессор Правоохранительной академии Республики Узбекистан

**FOUNDER
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW**

"The scientific-practical journal "Criminology and Criminal Justice" was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on March 18, 2021, with certificate No. 1160.

This journal was founded in cooperation with the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:
O. Choriev

Editors:
Y. Makhmudov, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova, Y. Yarmolik, E. Mustafaev

Proofreader:
S. Rasulova

Technical editor:
U. Sapaev

Designer:
D. Rajapov

Editorial office address:
100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.

Phone: (0371) 233-66-36,
233-41-09.

Fax: (0371) 233-37-48.

Website: www.ccj.tsul.uz

E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Subscription index: 1386.

Publishing license
№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 27.03.2025.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 7.

Units: 100. Order: № 71.

Printing house license
№ 174626, 29.11.2023-y.

Published in the Printing house of Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgokh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITOR-IN-CHIEF

N. Salayev – Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

EDITOR-IN-CHIEF

S. Samadov – Acting Head of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF

D. Bazarova – Head of the Department of Criminal and Procedural Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

EXECUTIVE EDITOR

A. Otajonov – Head of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

M. Rustambayev – Head of the University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

F. Rakhimov – Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

Q. Abdurasulova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

V. Davlyatov – Doctor of Philosophy in Law (PhD), Associate Professor

S. Niyozova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

Sh. Khaydarov – Acting professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

R. Kabulov – Professor of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

B. Umirzakov – Associate professor of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy in Law (PhD)

A. Baratov – Associate professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Legal Sciences

I. Astanov – Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

B. Pulatov – Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law



MUNDARIJA

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbayevich

XUSUSIY-OMMAVIY AYBLOV INSTITUTI DOIRASIDA JINOIY JAVOBGARLIKDAN
OZOD ETISH: PROTSESSUAL MUAMMOLAR 8

Mamadaliyev O'tkir Abdug'affarovich

PROTSESSUAL XATOLARNI SUD MUHOKAMASIDA BARTARAF ETISHNING
AMALDAGI MEXANIZMLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR20

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

Ahmadjonov Murodullo Nurali o'g'li

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH: DEMOKRATIYA, BURCHLILIK VA TIZIMLI
O'ZGARISHLAR36

12.00.14 – HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI. JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH. PROBATSIIYA FAOLIYATI

Xo'jamberdiyev Farrux Komilovich

HUQUQIY DAVLATDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING
HUQUQIY VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: MUVOZANAT VA ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR48

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

Атаниёзов Жасурбек Курбанбаевич

ОСВОБОЖДЕНИЕ ОТ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ В КОНТЕКСТЕ
ИНСТИТУТА ЧАСТНО-ОБЩЕСТВЕННОГО ОБВИНЕНИЯ:

ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ 8

Мамадалиев Уткир Абдугаффарович

ДЕЙСТВУЮЩИЕ МЕХАНИЗМЫ УСТРАНЕНИЯ ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ ОШИБОК

В СУДЕБНОМ РАЗБИРАТЕЛЬСТВЕ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ20

12.00.12 – ПРОБЛЕМЫ КОРРУПЦИИ

Ахмаджонов Муродулло Нурали угли

БОРЬБА С КОРРУПЦИЕЙ: ДЕМОКРАТИЯ, ПОДОТЧЁТНОСТЬ И СИСТЕМНЫЕ
ИЗМЕНЕНИЯ

36

12.00.14 – ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ. ПРОБАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Хужамбердиев Фаррух Комилович

ПРАВОВЫЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ
ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ПРАВОВОМ ГОСУДАРСТВЕ:

БАЛАНС И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ48



CONTENTS

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbaevich

EXEMPTION FROM CRIMINAL LIABILITY WITHIN THE FRAMEWORK
OF THE PRIVATE-PUBLIC PROSECUTION INSTITUTE: PROCEDURAL PROBLEMS 8

Mamadaliev Utkir Abdugaffarovich

CURRENT MECHANISMS FOR ELIMINATING PROCEDURAL ERRORS IN COURT
PROCEEDINGS: PROBLEMS AND SOLUTIONS20

12.00.12 – CORRUPTION PROBLEMS

Ahmadjonov Murodullo Nurali ugli

ANTI-CORRUPTION: DEMOCRACY, ACCOUNTABILITY AND SYSTEMIC CHANGE36

12.00.14 – CRIME PREVENTION. ENSURING PUBLIC SAFETY. PROBATION ACTIVITY

Khujamberdiev Farrukh Komilovich

LEGAL AND INSTITUTIONAL MECHANISMS FOR ENSURING PUBLIC SECURITY
IN A LEGAL STATE: BALANCE AND MODERN APPROACHES48

Kelib tushgan / Получено / Received: 03.03.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 13.03.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 27.03.2025

DOI: 10.51788/tsul.ccj.5.1./WAAC6122
UDC: 343.1(045)(575.1)

XUSUSIY-OMMAVIY AYBLOV INSTITUTI DOIRASIDA JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD ETISH: PROTSESSUAL MUAMMOLAR

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbayevich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrası dotsenti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0003-39-53-3800
e-mail: jasurbekaniyazov91@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz jinoyat-protsessual qonunchiligida shaxslarning dispozitiv huquqlari aks etishi, xususi ayblov instituti doirasida ularning huquqlarini ro'yobga chiqarishda vujudga kelayotgan huquqiy muammolarga to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, javobgarlikdan ozod etishning mazkur turining o'ziga xosligi hamda uning protsessual tartibi bo'lgan ish yuritishni rad etish yoki tugatish bilan bog'liq protsessual muammolari va mazkur masalalarning huquqiy tartibga solish jihatlari tadqiq etilgan. Maqolada jinoyat va jinoyat-protsessual huquqlarida nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod qilishning moddiy va protsessual asoslari qonunchilik va amaliyot nuqtayi nazaridan tahlil etilgan bo'lib, mavjud muammoli hamda kollizion holatlarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy mulohazalar, tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, qonunchiligimizda uchrayotgan shaxslarning da'vosi yo'qligi asosida ishni rad etish yoki tugatishda ishning keyingi protsessual mexanizmi mavjud emasligi, xususi ayblov institutining rivojlangan davlatlarda qo'llanishi, ushbu institutning taraqqiy topish shartlari, ommaviy ayblovdan farqli jihatlari, ommaviy ayblov asosida jinoyatlarni tasniflash zarurati huquqiy tadqiq etilgan. Tadqiqot ishida ilg'or xorijiy tajriba, ilmiy-nazariy qarashlar va tergov hamda sud amaliyoti o'rganilgan, buning natijasi o'laroq, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga, boshqa qonun hamda qonunosti hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha taklif, tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: shaxslarning dispozitiv huquqlari, xususi ayblov, ommaviy ayblov, ish yuritishni rad etish, jinoyat ishi, jinoyat ishini tugatish, javobgarlikdan ozod etish, da'vo

ОСВОБОЖДЕНИЕ ОТ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ В КОНТЕКСТЕ ИНСТИТУТА ЧАСТНО-ОБЩЕСТВЕННОГО ОБВИНЕНИЯ: ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ

Атаниёзов Жасурбек Курбанбаевич,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
доцент кафедры «Уголовно-правовые науки»
Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассматривается отражение диспозитивных прав лиц в уголовно-процессуальном законодательстве Узбекистана, а также правовые проблемы, возникающие при реализации этими лицами своих прав в рамках института частного обвинения. Особое внимание уделяется особенностям данного вида освобождения от ответственности и его процессуальному порядку, связанному с отказом в возбуждении или прекращением производства по делу, а также процессуальным проблемам, возникающим в связи с этим, и правовым аспектам их регулирования. В статье проведён анализ материальных и процессуальных оснований освобождения от ответственности, предусмотренных уголовным и уголовно-процессуальным правом с точки зрения законодательства и правоприменительной практики, а также выработаны научные выводы и рекомендации по устранению существующих проблемных и коллизионных ситуаций. Кроме того, исследуется вопрос отсутствия в законодательстве Узбекистана дальнейшего процессуального механизма при отказе в возбуждении или прекращении дела по причине отсутствия заявления потерпевшего. Также анализируется применение института частного обвинения в развитых странах, условия его развития, отличия от института публичного обвинения, а также необходимость классификации преступлений на основе публичного обвинения. В ходе исследования изучен передовой зарубежный опыт, научно-теоретические взгляды, а также практика следственных и судебных органов. По результатам работы выработаны предложения и рекомендации по внесению соответствующих изменений и дополнений в Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан, а также в другие законы и подзаконные акты.

Ключевые слова: диспозитивные права лиц, частное обвинение, публичное обвинение, отказ в возбуждении дела, уголовное дело, прекращение уголовного дела, освобождение от ответственности, иск

EXEMPTION FROM CRIMINAL LIABILITY WITHIN THE FRAMEWORK OF THE PRIVATE-PUBLIC PROSECUTION INSTITUTE: PROCEDURAL PROBLEMS

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbaevich,
Associate Professor of the Department of Criminal Law Sciences
of the University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. *This article addresses the reflection of individuals' dispositive rights in our country's criminal procedure legislation and the legal problems arising in realizing the rights of individuals within the framework of the private prosecution institution. Also, the specifics of this type of exemption from liability, as well as procedural problems related to the refusal or termination of proceedings in a case, which is its procedural order, and aspects of the legal regulation of these issues, have been investigated. The article analyzes the material and procedural grounds for exemption from this responsibility, provided for by criminal and criminal procedure law, from the point of view of legislation and practice, and develops scientific considerations and recommendations for eliminating existing problematic and conflict situations. At the same time, the absence of a further procedural mechanism for dismissing or terminating a case based on the absence of a claim from persons encountered in our legislation, the application of the institution of private prosecution in developed countries, the conditions for the development of this institution, its differences from public prosecution, and the need to classify crimes based on public prosecution have been legally investigated. In the research, advanced foreign experience, scientific and theoretical views, and investigative and judicial practice were studied, as a result of which proposals and recommendations were developed for making appropriate amendments and additions to the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan and other legislative and regulatory acts.*

Keywords: *dispositive rights of persons, private prosecution, public prosecution, refusal to initiate proceedings, criminal case, termination of criminal case, exemption from liability, lawsuit*

Kirish

Dunyo mamlakatlari jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligida shaxslarning huquq va manfaatlarini oliy darajada ta'minlash muhim rahbariy qoida sifatida mustahkamlangan. Xususan, jinoyat-protsessual qonunchiligida jabrlanuvchining manfaatlarini ta'minlash va mazkur munosabatlarga oliy qadriyat sifatida qarash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, shaxsga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zarar mazkur ijtimoiy munosabatlarning markazida bo'lgan jinoyat natijasida kelib chiqadi. Demak, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilik tizimining huquqiy mezonni ta'minlashdagi asosiy vazifasi jinoyat natijasida huquq va manfaatlariga putur yetgan shaxs, jabrlanuvchining buzilgan huquqlarini tiklash va unga yetkazilgan zararining qoplanishi hisoblanadi. Dastavval qonun chiqaruvchi jabrlanuvchining huquqlarini tiklash bo'yicha me'yorlarni yaratishi, shundan so'ng jinoyat sodir etgan shaxsga adolatli jazo berishi va bunda ham jabrlanuvchining talablarini inobatga olish borasidagi normalarni ishlab chiqishi talab etiladi.

Shu bois shaxslarning jinoiy qilmishlari bo'yicha ish yuritishni rad etish va tugatishda xususiy ayblov instituti muhim o'rinni egallaydi. Chunki dunyoda jinoyat natijasida jabrlangan shaxslarning dispozitiv huquqlarini amalga oshirish kabi institutsional qonunchilikni takomillashtirish masalalari dolzarb sanaladi. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida shaxslarning dispozitiv huquqlari



hisobga olinmagan, deb bo'lmaydi. Jumladan, JPKning 84-moddasi birinchi qismi 6-bandida ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa, ushbu kodeksning 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno ekanligi belgilab qo'yilgan. Aynan mazkur mustasnolik huquqni qo'llovchilar o'rtasida turlicha talqin etilishiga sabab bo'lmoqda.

Shuningdek, amaliyotda jabrlanuvchilarning dastlab ariza bilan murojaat etib, so'ng jinoyat ishi qo'zg'atilguniga qadar yoki jinoyat ishini tergov qilish jarayonida mazkur arizasini qaytib olishini va da'vosi yo'qligi sababli jinoyat ishi qo'zg'atmaslikni yoxud jinoyat ishini tugatishni so'rab murojaat qilish hollarida aynan jabrlanuvchining manfaatlarini inobatga olgan holda ishni hal etishning keyingi mexanizmi belgilab berilmagani va boshqa ko'plab huquqiy muammolarni tadqiq etish zarurati mavjud.

Material va metodlar

Tadqiqot ishida mazkur asosni qo'llash bilan bog'liq yuqorida sanab o'tilgan amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar, normativ tushunmovchiliklar va jabrlanuvchining manfaatlarini hisobga olishda inobatga olinishi lozim bo'lgan qoidalar tahlil qilingan, shu bilan birga, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik ma'lumotlar tahlili, huquqni qo'llash amaliyoti hamda kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

JPKning 84-moddasi birinchi qismi 6-bandida "Ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa, ushbu kodeksning 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno", – deb belgilab qo'yilgan. JPKning 325-moddasida esa jabrlanuvchining shikoyatiga asosan qo'zg'atilishi lozim bo'lgan jinoyat ishlari ro'yxati keltirilgan bo'lib, unda aynan JPKning qaysi moddalari va qismiga asosan faqatgina jabrlanuvchi tomonidan ariza asosida shikoyat qilingan hollarda jinoyat ishi qo'zg'atilishi, aks holda tergovga qadar tekshiruv hujjatlari bo'yicha ish yurituv rad etilishi belgilangan. Biroq JPKning 84-moddasi mazkur bandi bo'yicha bir qancha tushunmovchiliklar mavjud.

Jumladan, mazkur moddada "ushbu kodeksning 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno" deb belgilab qo'yilgani amaliyotda turli tortishuvlarga sabab bo'lmoqda. Mazkur moddada aytilishicha, jabrlanuvchining shikoyati bo'lmasa, ish qo'zg'atilmaydi, ya'ni jinoyat ishi jabrlanuvchi aybdorni javobgarlikka tortishni so'rab bergan shikoyat arizasi asosidagina qo'zg'atiladi, aks holda tergovga qadar tekshiruv hujjatlari bo'yicha ushbu asosga ko'ra jinoyat ishi qo'zg'atilishi rad etiladi. Biroq bunda qonun chiqaruvchi JPKning 325-moddasida nazarda tutilgan qaysi hollarni mustasno deb belgilagani mavhumligicha qolgan.

Bu haqda B. Murodov mazkur mustasnolik amaliyotda bir qancha tushunmovchiliklarni keltirib chiqarayotganini, ular JPK 325-moddasi tartibida rad etilgan jinoyat ishlarining goh JPK 83-moddasi bilan, goh 84-modda birinchi qismi 6-bandiga asoslangan holda qaror chiqarilayotgani bilan asoslab, mazkur holatlarning oldini olish uchun JPK 84-moddasi birinchi qismi 6-bandini, ya'ni "ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa, ushbu kodeksning 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno" degan matnidani "... ushbu

kodeksning 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno” jumlasini olib tashlash kerakligini bildirgan [1, 99–100-b.].

B. Murodovning fikrlari o‘rinli, ya’ni mazkur mustasnolikning belgilanishi nafaqat amaliyot vakillari uchun, balki nazariyada ham o‘zaro tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shunday bo‘lsa-da, B. Murodovning mazkur taklifi biroz keskinligi sababli unga qo‘shilmaymiz. Chunonchi, qonun chiqaruvchi mazkur mustasnolikni jabrlanuvchi nochor ahvolda bo‘lgani, ayblanuvchiga qaram bo‘lgani tufayli yoki boshqa sabablarga ko‘ra o‘z huquqi va qonuniy manfaatlarini o‘zi himoya qila olmaydigan alohida hollarda prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo‘zg‘atishi majburiyatini yuklagan holatini nazarda tutmoqda. Shu sababli mazkur asosni JPK 325-moddasi alohida qismida aks ettirish orqali tushunmovchilikka barham berish mumkin.

S. Maxmudov ham bu boradagi tadqiqotlari davomida mazkur mustasnolik holati moddaning mazmunida JPK 325-moddasida nazarda tutilgan barcha hollarni mustasno qilayotganini, aslida mazkur bandning bunday tahrir etilishiga sabab prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo‘zg‘atishi mumkin ekanligini bildirib, JPK 84-moddasi birinchi qismi 6-bandini “Ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo‘zg‘atiladigan hollarda uning shikoyati bo‘lmasa, prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo‘zg‘atish hollari bundan mustasno”, – deya qayd etishni taklif etgan [2, 110–115-b.].

S. Maxmudovning fikrlariga qisman qo‘shilamiz, bunda taklif etilayotgan tahrirda aynan prokurorning mazkur vakolatini ko‘rsatish shart emas, degan fikrdamiz, ya’ni JPK 325-moddasida belgilangan prokurorning majburiyatini qayta-qayta normalarda aks ettirish maqsadga muvofiq emas.

JPK 325-moddasi “Jabrlanuvchining shikoyatiga asosan jinoyat ishi qo‘zg‘atish” deb nomlangan bo‘lib, unda Jinoyat kodeksi 105-moddasining birinchi qismi, 109-moddasi, 110-moddasining birinchi qismi, 111-moddasi, 118-moddasining birinchi qismi, 119-moddasining birinchi qismi, 121-moddasining birinchi qismi, 136-moddasi, 139-moddasining birinchi va ikkinchi qismlari, 140-moddasining birinchi va ikkinchi qismlari, 141¹-moddasining birinchi qismi, 141³-moddasini, 149-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi jinoyat ishlari aybdorni javobgarlikka tortishni so‘rab jabrlanuvchi bergan shikoyat arizasi asosidagina qo‘zg‘atiladi. Jabrlanuvchi nochor ahvolda bo‘lgani, ayblanuvchiga qaram bo‘lgani tufayli yoki boshqa sabablarga ko‘ra o‘z huquqini va qonuniy manfaatlarini o‘zi himoya qila olmaydigan alohida hollarda prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo‘zg‘atishi shart.

Jinoyat kodeksining 167-, 170-, 172-, 173-moddalarida nazarda tutilgan va ustav fondida davlat ulushi bo‘lmagan yuridik shaxsga nisbatan uning xodimi tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi jinoyat ishlari faqat mazkur yuridik shaxs rahbarining, mulkdorining yoki vakolatli boshqaruv organining arizasiga ko‘ra qo‘zg‘atiladi.

Yuqorida keltirilgan normani huquqiy jihatdan tahlil etsak, jabrlanuvchining shikoyatiga asosan qo‘zg‘atilishi mumkin bo‘lgan yoki aksincha, mazkur ro‘yxatda

keltirilgan jinoyat ishlari yuzasidangina shikoyat bermaslik orqali jinoyat ishi yurituvidan voz kechishi mumkinligi anglanadi. Mazkur ro'yxatdan so'ng jabrlanuvchini nochor ahvolda bo'lgani, ayblanuvchiga qaram bo'lgani tufayli yoki boshqa sabablarga ko'ra o'z huquqi va qonuniy manfaatlarini o'zi himoya qila olmaydigan holatda deb topish uchun asoslar mavjud bo'lsa, jabrlanuvchining qonuniy manfaatlarini himoya qilish prokuror tomonidan jinoyat ishini qo'zg'atish orqali amalga oshirilishi majburiyatini qonun chiqaruvchi belgilab bermoqda. Aynan mazkur asos 84-moddaning birinchi qismi 6-bandida mustasno holat sifatida belgilangan. Faqat ushbu mustasnolikni alohida qismda nazarda tutish orqaligina huquqiy muammo yechimi sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, 325-moddaning ikkinchi qismida yuridik shaxslar JKning 167-, 170-, 172-, 173-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar bo'yicha faqatgina mazkur yuridik shaxslarning ustav fondida davlat ulushi bo'lmagan va uning xodimi tomonidan sodir etilgan taqdirda, yuridik shaxs rahbari, mulkdori yoki vakolatli boshqaruv organining arizasiga ko'ra qo'zg'atilishi belgilangan.

Xorijiy davlatlardan Tojikiston Respublikasi [3], Qirg'iz Respublikasi [4] JPKlariga ko'ra, jinoyat toifalari xususiy, xususiy-ommaviy va ommaviy ayblov turlariga bo'linadi. Xususiy va xususiy-ommaviy ayblovga oid jinoyat turlarida jinoyat ishi faqatgina jabrlanuvchi yoki uning qonuniy vakili tomonidan berilgan ariza asosida qo'zg'atilishi mumkin. Shuningdek, ish yuritish davomida jabrlanuvchi va uning vakili da'vodan voz kechishi mumkinligi, bunday hollarda jinoyat ishi tugatilishi, nafaqat prokuror, balki tergovchining ham alohida hollarda jinoyat ishini qo'zg'atish vakolati normaning alohida qismida keltirib o'tilgan.

Fikrimizcha, mazkur qism ham normaning birinchi qismidagi xususiy ayblov institutining mantiqiy davomi bo'lgani sababli ularni yagona institut sifatida birlashtirish yoki mazkur normani uch mustaqil qismga bo'lish yo'li bilan yuqoridagi huquqiy muammoni bartaraf etish lozim. Ya'ni JPK 84-moddasining mazkur asosini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq:

ish faqat jabrlanuvchining arizasi bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa, ushbu kodeksning 325-moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

JPKning 325-moddasini esa quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq:

Jinoyat kodeksi 105-moddasining birinchi qismida, 109-moddasida, 110-moddasining birinchi qismida, 111-moddasida, 118-moddasining birinchi qismida, 119-moddasining birinchi qismida, 121-moddasining birinchi qismida, 136-moddasida, 139-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 140-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 141¹-moddasining birinchi qismida, 141³-moddasida, 149-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar to'g'risidagi jinoyat ishlari aybdorni javobgarlikka tortishni so'rab jabrlanuvchi bergan shikoyat arizasi asosidagina qo'zg'atiladi.

Jinoyat kodeksining 167-, 170-, 172-, 173-moddalarida nazarda tutilgan va ustav fondida davlat ulushi bo'lmagan yuridik shaxsga nisbatan uning xodimi tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi jinoyat ishlari faqat mazkur yuridik shaxs rahbarining, mulkdorining yoki vakolatli boshqaruv organining arizasiga ko'ra qo'zg'atiladi.

Jabrlanuvchi nochor ahvolda bo'lganligi, ayblanuvchiga qaram bo'lganligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko'ra o'z huquqini va qonuniy manfaatlarini o'zi himoya qila olmaydigan alohida hollarda prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo'zg'atishi shart.

Shaxslarning jinoiy qilmishlari bo'yicha ish yuritishni rad etish yoki tugatish amaliyotida asosan jabrlanuvchilarning dastlab ariza bilan murojaat etganidan so'ng, keyinchalik jinoyat ishi qo'zg'atilguniga qadar yoki jinoyat ishi tergov qilish jarayonida mazkur arizasini qaytib olishini va da'vosi yo'qligi sababli jinoyat ishi qo'zg'atmaslikni yoxud jinoyat ishini tugatishni so'rab murojaat qilish hollari ko'plab uchraydi.

Yuqoridagi holatni statistik ma'lumotlar bilan asoslasak, xususan, O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Tergov departamenti tomonidan, 2017-yilda 33 ta, 2019-yilda 51 ta, 2021-yilda 52 ta, 2022-yilda 81 ta jinoyat ishi tugatilgan bo'lsa, 2023-yilda 113 ta jinoyat ishi mazkur asosga ko'ra tugatilgan.

Mazkur raqamlar jinoyat ishini mazmunan hal etuvchi sudlarda quyidagicha ko'rsatkichlarni tashkil etmoqda, jumladan, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar 2017-yilda 3 ta jinoyat ishlarini mazkur asosga ko'ra tugatilishi to'g'risida ajrim chiqargan bo'lsa, 2018-yilda 1 ta, 2019-yilda 2 ta, 2020-yilda 11 ta, 2021-yilda 2 ta, 2022-yilda 14 ta, 2023-yilda 11 ta ajrim chiqarish yo'li bilan jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan.

Yuqoridagi statistik ma'lumotlar jabrlanuvchilarning mazkur asosga ko'ra jinoyat ishlarini tergov qilish yoki sudlarda ko'rish jarayonida murojaat qilishayotgani ko'plab uchrayotganini asoslaydi. E'tiborli jihati shundaki, amaldagi qonun hujjatlarida mansabdor shaxslar mazkur holatlarda qanday yo'l tutishi lozimligi nazarda tutilmagan.

M. Hayitovning fikriga ko'ra, dispozitivlik umumiy-huquqiy prinsip sifatida jinoyat-protsessual faoliyatini boshlash, davom ettirish yoki tugatishda huquqi buzilgan, deb qaralayotgan shaxsning ixtiyoridan kelib chiqqan holda protsessual harakatlarni amalga oshirish va qaror qabul qilish zarurligining qonunda belgilanishini va unga amal qilinishini anglatadi. Xususiyy ayblov deganda faqat jabrlanuvchining shikoyati bo'lganida qo'zg'atiladigan, jabrlanuvchi yoki uning vakilining talab-xohishi asosida yuritiladigan jinoyatlarga oid ishlarda jabrlanuvchi yoki uning nomidan vakili quvvatlaydigan ayblov tushuniladi [5, 108–118-b.].

Y.N. Nikiforovanning ta'kidlashicha, dispozitivlik muhitida fuqaroning shaxsiy manfaatlarini davlat manfaatlariga qaraganda qadrliroq hisoblanadi [6, 64-b.].

D.Sh. Bekmatova xususiyy ayblov tartibidagi jinoiy ta'qib deganda jabrlanuvchining murojaati jinoyat ishini qo'zg'atish hamda uni tugatish uchun asos bo'ladigan jinoiy ta'qib turi ekanligini bildirgan bo'lsa [7, 15-b.], A.K. Kulbayevning fikriga ko'ra, xususiyy ayblov jinoyat ishlarini yuritishning soddalashtirilgan shakli bo'lib, uning maqsadi jarayonni tezlashtirish va undan foydalanish imkoniyatlarini oshirishdir [8, 149-b.].

Yuqoridagi olimlarning fikrlari o'rinli hisoblanib, huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlariga yetkazilgan zarar barcha hollarda zamon, makon, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omillaridan kelib chiqib, jabrlanuvchining o'z shaxsiy mezonlari asosida baholanadi. Bunda zararining eng quyi va yuqori miqdorlariga legitimlik xususiyati

berilib, uni tan olish, tasdiqlash, da'vo qilish yoki undan voz kechish jabrlanuvchi irodasidan kelib chiqib hal etiladi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi "Sud hukmi to'g'risida"gi 7-son qarorining 25-bandida sud sudlanuvchiga avval e'lon qilingan aybni jabrlanuvchining shikoyatiga asosan qo'zg'atiladigan jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi JK moddasiga o'zgartirish zarurligi to'g'risida xulosaga kelganda, jabrlanuvchining sudlanuvchini jinoiy javobgarlikka tortish haqidagi arizasi ishda mavjud-mavjud emasligidan kelib chiqib qaror qabul qilishi belgilangan.

Biroq mazkur holatda qo'zg'atilgan jinoyat ishini sudlarda ko'rib chiqish jarayonida hal etilishi tartibi belgilab berilgan xolos. Mazkur holatlar tergovga qadar tekshiruv yoki surishtiruv jarayonida o'z yechimini topishi zarur.

Bu borada J.D. Elvin o'z tadqiqotlarida "Ayblov agar xususiy ko'rinish kasb etsa, ishning natijasidan manfaatdor tomonlarning foydasini ko'zlagan holda aks etishi lozimligi sababli bunday turdagi ish sudlarga oshirilmaligi, agar sud jarayonida jabrlanuvchi da'vodan voz kechsa, qayta murojaat etish huquqidan mahrum etish sharti bilan ishni tugatish lozim" [9, 1-47-b.], – degan xulosaga kelgan. Mazkur fikrga qo'shilish mumkin, shu bilan birga, olim tadqiqotlarida anglo-sakson huquq oilasiga ko'ra xulosalarni amalga oshirganini inobatga olsak, ushbu masala barcha huquq oilalarida birday dolzarb ekanligini anglashimiz mumkin bo'ladi.

Shuningdek, D.R. To'rayeva jabrlanuvchi manfaatlarini ta'minlash borasidagi tadqiqotlarida "musulmon huquqida ham jabrlanuvchi da'vosi birlamchi hisoblanishi, "shaxs haqi" tushunchasi bilan bog'langani hatto jabrlanuvchi vafot etgan hollarda uning da'vosini vorislari talab etishi mumkinligi"ni ta'kidlaydi [10, 1-47-b.]. Demak, musulmon huquqiga oid huquq oilasida ham jabrlanuvchi manfaatini inobatga olish lozimligi borasidagi qoidalar mustahkamlangan.

Shu sababli, bizningcha, jabrlanuvchining bu boradagi dispozitiv huquqlarini ta'minlash maqsadida ishning qaysi bosqichda ekanligidan, ya'ni tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi jarayonida bo'lishidan qat'i nazar, mazkur huquq jabrlanuvchiga tegishli ekanligini inobatga olgan holda, JPK 84-moddasi birinchi qismi 6-bandini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq:

ish faqat jabrlanuvchining arizasi bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa yoki jabrlanuvchi shu asos bo'yicha da'vosidan voz kechsa, ushbu kodeksning 325-moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Shuningdek, jinoyat ishini tugatish borasida tadqiqot olib borgan olimlar mazkur asosni qo'llash bilan bog'liq bir necha muammoli holatlarni sanab o'tadilar. Jumladan:

– JPK 325-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar aynan bir shaxsga bir necha shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lib, jabrlanuvchi ularning faqat ayrimlariga nisbatan ish yuritishni rad etishni so'rab murojaat qilishi.

Misol uchun: Guliston shahar IIB huzuridagi tergov boshqarmasi ish yurituvdagi 244011/2023-65-sonli jinoyat ishi bo'yicha tergovga qadar tekshiruv davomida fuqaro A.ga nisbatan N.I., J.B. va N.A. ismli shaxslar tomonidan tan jarohati yetkazilgani holati bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lib, ushbu holatda jabrlanuvchi A.ning o'z qarindoshi J.B.ga nisbatan hech qanday da'vosi yo'qligini bildirib uni javobgarlikdan

ozod qilishni so'rab bergan arizasi bir guruh shaxslar tomonidan yetkazilgan ushbu tan jarohati og'irlik darajasi tufayli rad etilgan;

- agar shaxs jinoyatlar majmuini tashkil etadigan JPK 325-moddasida nazarda tutilgan bir nechta jinoyatni sodir etsa va barcha jabrlanuvchilar yoki ularning ayrimlari jinoyat ishini qo'zg'atish uchun ariza berishdan bosh tortsa, unga nisbatan ushbu modda talablari asosida jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish masalasi;

- jabrlanuvchilarning dastlab ariza berishdan bosh tortib, keyinchalik ushbu shaxsga nisbatan qonuniy chora ko'rishni so'rab murojaat qilgan hollarda ish yuritish tartibi, protsessual hujjatlarning yagona shakli va tartibi qonunchilikda belgilanmagani va hokazo.

Nazarimizda, yuqorida qayd etilgan huquqiy muammolarning barchasi huquq analogiyasiga ko'ra hal etilishi lozim, ya'ni bugungi kunda amaliyotda yuqoridagi muammoli vaziyatda duch kelinganda huquq analogiyasiga rioya qilingan holda qarorlarning qabul qilinishi noqonuniy hisoblanmaydi. Shuningdek, jabrlanuvchini dastlab ariza berishdan bosh tortib, keyinchalik shaxsni javobgarlikka tortishni so'rab bergan murojaatini tomonlarning yarashuvi tartibi singari qayta murojaat qilish huquqidan mahrum bo'lishi to'g'risida tushuncha berish orqali hal etish lozim, degan fikrdamiz.

Shu bilan birgalikda, JPK 325-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan jabrlanuvchi bergan shikoyat arizasi asosidagina qo'zg'atiladigan jinoyatlar ro'yxatini bosqichma-bosqich kengaytirish va ushbu jinoyatlar ro'yxatiga harbiy jinoyatlardan bir qanchasini (xususan, JKning 284-moddasi birinchi qismi (Bo'ysunuvchining o'z boshlig'ini yoki boshliqning o'ziga bo'ysunuvchini haqorat qilishi), 298-moddasi birinchi qismi (Mashinalarni boshqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish) qo'shish lozim, degan fikrdamiz.

Yuqorida ilgari surilgan taklifga asos sifatida keltirish lozimki, o'z o'rnida haqorat qilishdan mazkur jinoyat harbiy boshqaruvga ta'sir etgani jinoyatning obyekti va boshqa bir qancha jihatlari bilan farqlanadi hamda o'z o'rnida ijtimoiy xavflilik nuqtayi nazaridan farqlanadi. Biroq o'tkazilgan statistik so'rovlar davomida harbiy prokuratura tergovchi va huquqni qo'llovchi boshqa mansabdorlarning aksariyati (53,6 %) ushbu turdagi ko'rib chiqilgan jinoyat ishlarida jinoyat ishi qo'zg'atilgach tomonlar o'zaro yarashishgani hamda jamoa o'rtasida ushbu nizo muhokama qilinishi natijasida o'zaro ixtiloflar bartaraf etilganini va jinoyat ishini tugatishni so'rab murojaat qilishlarini, biroq mazkur jinoyat xususiy-ommaviy ayblov turiga taalluqli bo'lmagani bois umumiy tartibda ishni ko'rib chiqish lozimligi sababli arizalar ko'rilmadan qoldirilganini bildirishgan.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Tergov departamenti taqdim qilgan ma'lumotlarga e'tibor qaratsak, O'zbekiston Respublikasi JKning 139-140-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JPKning 84-moddasi birinchi qismi 6-bandiga asosan jinoyat ishi qo'zg'atish rad etilgan yoki tugatilgan jinoyat ishlari ko'pchilikni tashkil etayotganini kuzatishimiz mumkin. Ya'ni 2023-yilda tugatilgan 113 ta jinoyat ishining 29 tasi hamda 311 ta rad etilgan tergovga qadar tekshiruv hujjatlari aynan haqorat

qilganlik holati bilan bog'liq ekanligi, aynan JPK 325-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan jabrlanuvchi bergan shikoyat arizasi asosidagina qo'zg'atiladigan jinoyatlar ro'yxatini JK 284-moddasi birinchi qismi (Bo'ysunuvchining o'z boshlig'ini yoki boshliqning o'ziga bo'ysunuvchini haqorat qilishi), 298-moddasi birinchi qismi (Mashinalarni boshqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish) bilan to'ldirish lozimligini asoslaydi. Bundan tashqari, harbiy bo'lmagan shaxslarning haqorat bilan bog'liq vaziyatlarda ishni tugatish asoslari mavjudligi, biroq harbiy xizmatchilar bunday vaziyatlarda o'zaro da'vodan voz kechgan hollarda ishni hal etishning keyingi mexanizmi mavjud emasligi bir tomondan huquqiy notenglikni keltirib chiqarsa, ikkinchi tomondan albatta ularning huquqlarini cheklaydi, deb o'ylaymiz.

Shuningdek, bu borada boshqa guruh olimlar harbiy boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar xususiy-ommaviy ayblov jinoyatlariga oid bo'lishi mumkin emasligi, chunki jinoyatning obyekti harbiy boshqaruv tartibi ekanligi, bu esa ijtimoiy jihatdan xavfli ekanligini keltiradilar [11, 335-b.; 12, 115-b.].

Biroq ushbu fikrlar faqatgina taklif etilayotgan jinoyatlarga bevosita bog'liq emasligi, bunda faqatgina jinoyat subyektidagina farq borligi bois, shuningdek, davr talabi hisoblangan resurslar sarfini optimallashtirish, mamlakat mudofaa salohiyatini saqlash hamda boshqa bir qancha omillarga ko'ra inkor etishni lozim topdik.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqorida keltirib o'tilgan tahlillardan kelib chiqqan holda jinoiy javobgarlikdan ozod etishda xususiy ayblov institutini qo'llashning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratish lozim.

Birinchi, JPKning 84-moddasi birinchi qismi 6-bandida "ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa, ushbu kodeksning 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno", deganda qonun chiqaruvchi mazkur mustasnolikni jabrlanuvchi nochor ahvolda bo'lgani, ayblanuvchiga qaram bo'lgani tufayli yoki boshqa sabablarga ko'ra o'z huquqi va qonuniy manfaatlarini o'zi himoya qila olmaydigan alohida hollarda prokurorga jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo'zg'atish majburiyati yuklangan holatni nazarda tutmoqda.

Ikkinchi, JPKning 84-moddasi birinchi qismi 6-bandida belgilagan mustasnolikdagi mavhumlikni bartaraf etish uchun JPKning 325-moddasini uch alohida qismga bo'lish va mazkur alohida qismda prokurorning jabrlanuvchi manfaatlarini himoya qilish uchun uning arizasi bo'lmagan taqdirda ham ish qo'zg'atish vakolatini nazarda tutish orqali hal etish maqsadga muvofiq.

Uchinchi, xorij mamlakatlari JPKlarida jinoyat toifalari xususiy, xususiy-ommaviy va ommaviy ayblov turlariga bo'linadi. Xususiy va xususiy-ommaviy ayblovga oid ishlarda jabrlanuvchining manfaatlari oliy hisoblanadi va ishni hal etishda ularning da'vosi birlamchi sanalishini inobatga olgan holda bu borada tadqiqot ishlarini olib borish maqsadga muvofiq.

To'rtinchi, shaxslarning jinoiy qilmishlari bo'yicha ish yuritishni rad etish yoki tugatish amaliyotida jabrlanuvchilarning dastlab ariza bilan murojaat etganidan so'ng, keyinchalik jinoyat ishi qo'zg'atilguniga qadar yoki jinoyat ishini tergov qilish

jarayonida mazkur arizasini qaytib olishi va da'vosidan voz kechishi hollarida ishning keyingi tartibini qonunchilikda qayd etish zarurati mavjud.

Xulosalar

Muqaddam ilmiy jurnallarda e'lon qilingan maqolalarimizda JPKning 83-, 84-moddalarining nomlanishida va ushbu normalarning mazkur munosabatlarga oid ijtimoiy munosabatlarni qamrab olishi bo'yicha muammolarga batafsil to'xtalib o'tganimiz va ularning huquqiy yechimi yuzasidan o'z takliflarimizni berganimiz bois quyida ish yuritishni istisno qiluvchi holatlarning yagona normada aks etishi nazarda tutilgan [13, 39-47-b.; 14, 96-105-b.; 15, 126-135-b.; 16, 121-130-b.].

Yuqoridagi fikrlar va tahlillar natijasida quyidagi takliflarni ilgari surish va JPK 84-moddasi birinchi qismi 6-bandini hamda 325-moddalariga quyidagi o'zgartishlarni kiritish maqsadga muvofiq deb bildik.

83-modda. Jinoyatga oid ishlarni yuritishni rad etish va tugatish asoslari.

Jinoyatga oid ishlar quyidagi hollarda rad etilishi yoki tugatilishi lozim, agar:

13) ish faqat jabrlanuvchining arizasi bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa yoki ushbu ariza jabrlanuvchi tomonidan qaytarib olingan bo'lsa, ushbu kodeksning 325-moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

325-modda. Jabrlanuvchining shikoyatiga asosan jinoyat ishi qo'zg'atish

Jinoyat kodeksi 105-moddasining birinchi qismida, 109-moddasida, 110-moddasining birinchi qismida, 111-moddasida, 118-moddasining birinchi qismida, 119-moddasining birinchi qismida, 121-moddasining birinchi qismida, 136-moddasida, 139-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 140-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 141¹-moddasining birinchi qismida, 149-moddasida, 284-moddasining birinchi qismida, 298-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatlar to'g'risidagi jinoyat ishlari jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortishni so'rab jabrlanuvchi bergan shikoyat arizasi asosidagina qo'zg'atiladi.

Jinoyat kodeksining 167-, 170-, 172-, 173-moddalarida nazarda tutilgan va ustav fondida davlat ulushi bo'lmagan yuridik shaxsga nisbatan uning xodimi tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi jinoyat ishlari faqat mazkur yuridik shaxs rahbarining, mulkdorining yoki vakolatli boshqaruv organining arizasiga ko'ra qo'zg'atiladi.

Jabrlanuvchi nochor ahvolda bo'lgani, ayblanuvchiga qaram bo'lgani tufayli yoki boshqa sabablarga ko'ra o'z huquqini va qonuniy manfaatlarini o'zi himoya qila olmaydigan alohida hollarda prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo'zg'atishi shart.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda har jabhada bo'lgani kabi jinoiy-huquqiy sohada inson qadri va manfaatlari yo'lida olib borilayotgan islohotlar natijasi, eng avvalo, uning dispozitiv huquqlari misolida namoyon bo'lmoqda. Mazkur islohotlar yo'lini izchillik bilan davom ettirish esa nafaqat davlatimiz, balki xalqimiz manfaatlariga ham mos ravishda huquqiy tartibni saqlashga xizmat qiladi, degan fikrdamiz.



REFERENCES

1. Murodov B.B. Jinoyat ishini tugatish: nazariya va amaliyot [Termination of a criminal case: theory and practice]. Tashkent, 2015, pp. 99–100.
2. Maxmudov S.A. Ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatishning ayrim jihatlarini [Some aspects of ending a criminal case without resolving an issue of guilt]. *Lawyer Herald*, 2020, no. 6, pp. 110–115.
3. The Criminal Procedure Code of the Republic of Tajikistan dated December 3, 2009.
4. Criminal Procedure Code of the Kyrgyz Republic. 2021, No. 129.
5. Hayitov M.A. Jinoyat protsessida xususiy ayblovi tushunchasi va uning huquqiy tavsifi [The concept of private prosecution in criminal proceedings and its legal description]. *Journal of New Century Innovations*, 2022, vol. 6, iss. 3, pp. 108–118.
6. Nikiforova Je.N. Dizpozitivnye nachala v ugodovnom processe Respubliki Uzbekistan [Dispositive principles in the criminal process of the Republic of Uzbekistan]. *Law*, 2002, no. 2, p. 64.
7. Bekmatova D.Sh. O'zbekiston Respublikasining jinoyat protsessida jinoiy ta'qib funksiyasining shakllanishi va uni takomillashtirish [Formation of the criminal prosecution function in the criminal proceedings of the Republic of Uzbekistan and its improvement]. Tashkent, 2020, p. 15.
8. Criminal Procedure Code of the Kyrgyz Republic. 2017. Bishkek, 2018, p. 149.
9. Elvin J.D., De Than C. Private prosecution: a useful constitutional safeguard or potentially dangerous historical anomaly? *Criminal Law Review*, 2019, vol. 8, pp. 656–683.
10. To'rayeva D.R. Jinoyat protsessida jabrlanuvchining manfaatlari muhofazasi: genezisi va rivojlanish tarixi [Protection of the interests of the victim in criminal proceedings: Genesis and history of development]. *Journal of political science, law and international relations*, 2023, vol. 01, pp. 19–27.
11. Muxitdinov F.M. Jinoyat-protsessual shakl: nazariy va metodologik muammolar [Criminal Procedure form: theoretical and methodological problems]. Tashkent, 2005, p. 335.
12. Murodov B.B. Jinoyat ishini tugatish institutini takomillashtirish [Improvement of the institution of termination of a criminal case]. Tashkent, 2018, p. 115.
13. Ataniyazov J.K. The reason for the death of a person in case of refusal or termination of office work: problems and solutions. Tashkent, *Jurisprudence*, 2023, vol. 3, pp. 39–47.
14. Ataniyazov J.K. Some issues of refusal or termination of the case in connection with reconciliation and actual repentance for what they did. Tashkent, *Review of Law Sciences*, 2023, vol. 1, pp. 96–105.
15. Ataniyazov J.K. Some aspects of protecting the rights and interests of persons in case of refusal to initiate or terminate a criminal case. Tashkent, *Jurisprudence*, 2023, vol. 1, pp. 126–135.
16. Ataniyazov J.K. Expiration of the period of bringing to responsibility as a ground for exemption from criminal responsibility: problems and solutions. Tashkent, *Review of Law Sciences*, 2023, vol. 7, iss. 3, pp. 121–130.

Kelib tushgan / Получено / Received: 11.01.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 14.03.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 27.03.2025

DOI: 10.51788/tsul.ccj.5.1./GWGX3358

UDC: 347.9(045)(575.1)

PROTSESSUAL XATOLARNI SUD MUHOKAMASIDA BARTARAF ETISHNING AMALDAGI MEXANIZMLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Mamadaliyev O'tkir Abdug'affarovich,
O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi
Sudyalar oliy maktabi mustaqil izlanuvchisi
ORCID:0009-0007-7181-2574
e-mail: uamamadaliyev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ishni sudga qadar yuritish bosqichida yo'l qo'yiladigan protsessual xato tushunchasi va ularning oqibatlarini bilan bog'liq muammolar tahlil etilgan. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida yo'l qo'yilgan xatolarni o'z vaqtida bartaraf etish muhim ahamiyatga egaligiga qaramasdan, xatolarni bartaraf etishning protsessual tartibi qonunchilikda belgilanmagan. Sud muhokamasida protsessning oldingi bosqichlaridagi protsessual harakatlar va qarorlarning qonuniyligi, jinoyat ishining barcha holatlari taraflar ishtirokida qaytadan tekshiriladi va baho beriladi. Shu bilan birga, mazkur bosqichda sud tergov organlari va prokurorning ish bo'yicha fikridan qat'i nazar qonunga asoslanib, barcha faktlarga baho beradi. Sud muhokamasida protsessual xatolarni bartaraf etish muammolari o'z-o'zidan sudning faollik darajasi va vakolat doirasi bilan bog'liqligidan kelib chiqib, tergov xatolarini bartaraf etishning protsessual mexanizmlari zarurati va sudning ushbu yo'nalishdagi faoliyati muhokama etilgan. Yo'l qo'yiladigan tergov xatolari turlari tahlil qilingan va ushbu masalani qonunchilik bilan alohida tartibga solish zarurati haqida xulosa qilingan. Shuningdek, mazkur bosqichda ishni prokurorga qaytarmasdan, mazkur xatoni bartaraf etishning samarali protsessual mexanizmlarini joriy etish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: sud, tergov, sud faoliyati, xatolarni bartaraf etish, protsessual hujjat, qonuniylik

ДЕЙСТВУЮЩИЕ МЕХАНИЗМЫ УСТРАНЕНИЯ ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ ОШИБОК В СУДЕБНОМ РАЗБИРАТЕЛЬСТВЕ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Мамадалиев Уткир Абдугаффарович,
самостоятельный соискатель Высшей школы судей
при Высшем судейском совете Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье проанализированы проблемы, связанные с понятием процессуальных ошибок, допускаемых на стадии досудебного производства, и их последствиями. Несмотря на важность своевременного устранения ошибок, допущенных на досудебной стадии, процессуальный порядок их устранения в законодательстве не урегулирован. В рамках судебного разбирательства законность процессуальных действий и решений предыдущих этапов уголовного процесса, а также все обстоятельства дела пересматриваются и оцениваются с участием сторон. При этом суд, независимо от мнения следственных органов и прокурора, даёт оценку всем фактам на основе закона. Проблемы устранения процессуальных ошибок на стадии судебного разбирательства непосредственно связаны со степенью активности суда и объёмом его полномочий. В статье обсуждается необходимость создания действенных процессуальных механизмов устранения следственных ошибок и анализируется деятельность суда в этом направлении. Проведён анализ видов следственных ошибок, подчёркивается необходимость отдельного законодательного регулирования этого вопроса. Также даны научно-теоретические и практические рекомендации, направленные на расширение возможностей эффективного устранения указанных ошибок на стадии судебного разбирательства – без возврата дела прокурору.

Ключевые слова: суд, следствие, судебная деятельность, устранение ошибок, процессуальный документ, законность

CURRENT MECHANISMS FOR ELIMINATING PROCEDURAL ERRORS IN COURT PROCEEDINGS: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Mamadaliev Utkir Abdugaffarovich,

Independent researcher at the Supreme School of Judges
under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article analyzes the concept of procedural errors at the pre-trial stage and the problems associated with their consequences. Despite the fact that the timely elimination of errors made at the stage of pre-trial proceedings is of great importance, the procedural order for eliminating errors is not established by law. During the trial, the legality of procedural actions and decisions of previous stages of the process, all circumstances of the criminal case are re-examined and assessed with the participation of the parties. At the same time, at this stage, the court evaluates all facts based on the law, regardless of the opinion of the investigative bodies and the prosecutor on the case. Based on the fact that the problems of eliminating procedural errors in court proceedings are inherently related to the level of activity and competence of the court, the necessity of procedural mechanisms for eliminating investigative errors and the activities of the court in this direction were discussed. The types of investigative errors made were analyzed, and a conclusion was made about the need for special regulation of this issue by legislation. Also, at this stage, scientific-theoretical and practical recommendations were given in order to expand the possibilities of introducing effective

procedural mechanisms for eliminating this mistake without returning the case to the prosecutor.

Keywords: *court, investigation, judicial activity, elimination of errors, procedural document, legality*

Kirish

Ishni sudga qadar yuritish bosqichida yo'l qo'yilgan protsessual xatolarning sud tomonidan bartaraf etilishi mexanizmining tarkibiy elementlari xatolarni aniqlash, bartaraf etish va oldini olishdan iborat.

Ilmiy adabiyotlarda dastlabki tergov xatolarini ta'riflashda turli atamalar qo'llanadi: "odil sudlov xatolari" [1], sud xatolari [2], "dastlabki tergovning kamchiliklari", "dastlabki tergovdagi bo'shliqlar [3]", "jinoiy protsessual qoidabuzarliklar" [4–6], "xatolar" [7–13], "tergov xatolari" [14, 15], "qonun buzilishi" [16, 17], "qonun normalari buzilishi", shu jumladan, "jiddiy qoidabuzarliklar", "qonun normalaridan chekinish", "protsessual xatolar" va boshqalar.

Ilmiy adabiyotlar tahlili aynan qanday xatolarni JPK normalarining jiddiy buzilishlari sifatida baholash masalasida umumiy fikr mavjud emasligini ko'rsatadi. Aksariyat olimlar qonun buzilishining jiddiyligini belgilovchi asosiy mezon uning oqibatlari bilan bog'liqligi haqida xulosaga kelgan. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda jinoyat-protsessual qonun normalarining jiddiy buzilishi qoidabuzarlik subyekti, obyekti, shartli yoki shartsizligi, jinoyat protsessining aynan qaysi bosqichida yo'l qo'yilganidan kelib chiqib tasniflangan.

Sud tomonidan protsessual xatoni bartaraf etish sudning ishni sudga qadar yuritish bosqichida yo'l qo'yilgan protsessual xatolarni bartaraf etishga qaratilgan protsessual faoliyatidir.

Sud muhokamasi odil sudlovni amalga oshirishning yagona shakli hisoblanadi, shu sababli sud muhokamasining shartlari JPKda alohida belgilangan. Sud muhokamasining umumiy shartlari sud majlisida jinoyat ishlarini ko'rib chiqish tartibiga jinoyat-protsessual qonuni bilan belgilangan talablar bo'lib, ularga amal qilmaslik qabul qilingan sud qarorlari noqonuniyligini keltirib chiqaradi.

Sudning harakatlari orqali faktik xatolarni bartaraf etish imkoniyati mavjud emasligi jinoyat protsessining tortishuv shakli ko'rinishidir. Bunday protsessning asosiy vazifasi taraflarning nizosini hal qilish, bunda sud dalillar bazasini shakllantirishda faollik ko'rsatishi mumkin emas, u taraflarning talablariga bog'langan va faqat ularning doirasida ishni ko'rishi va hal qilishi lozim [18, 102-b.]. Biroq bunday suddan hukmning asosli va adolatli bo'lishini talab qilishning o'zi noto'g'ri bo'ladi, sababi u taraflarning talabi doirasida harakat qiladi, u aniqlagan holat ham ishning haqiqiy holatini emas, ya'ni faqatgina protsessda aniqlangan holat (protsessual haqiqat)ni aks ettirishi mumkin. Bu esa odil sudlovning funksiyasi, jinoyat protsessining vazifasiga muvofiq emas.

Shu sababli biz ayrim olimlarning prokuror va dastlabki tergov organlariga dastlabki tergovning to'liq emasligi bilan bog'liq qoidabuzarliklarni bartaraf etish

imkoniyatini berish bilan sud jinoiy ta'qib funksiyasini bajarishi, sifatsiz dastlabki tergov masalasining ayblanuvchi huquq va manfaatlari hisobiga hal qilinishi nafaqat noqonuniy, balki adolatsiz bo'lishi [19, 14-b.] haqidagi fikrlari bilan kelishmaymiz. Sababi protsessual xatolarni bartaraf etish orqali sud biror-bir tarafning manfaatiga emas, balki qonuniy va adolatli hukm chiqarishga to'sqinlik qiluvchi holatlarni bartaraf etadi hamda taraflardan, shu jumladan, ayblov tarafidan o'zining funksiyasini to'liq bajarishni talab qilishga haqli.

Material va metodlar

Tadqiqotda jinoyat protsessida ishtirokchilar masalasi bo'yicha qonunchilik normalari va huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

Odil sudlovni amalga oshirish jarayonida sud ishning haqiqiy holatlarini aniqlashi, buning uchun ishni sudga qadar yuritish bosqichida yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf etish uchun ixtiyorida bo'lgan barcha protsessual vositalardan foydalanishi zarur.

Ayon bo'ldiki, qo'shimcha tergov mexanizmi bajaradigan texnik yuklamani boshqa jinoyat-protsessual institutlari o'rtasida taqsimlash unchalik oson emas, ayniqsa, sovet jinoyat protsessi "qo'shimcha tergov" doktrinasini rivojlantirishga diqqat qaratishi natijasida ayrim o'ta muhim protsessual jihatlarni o'z vaqtida yo'qotib bo'lgan, natijada ular postsovet jinoyat-protsessual tizimlari tomonidan meros qilib olinmadi [20, 54-b.].

Biroq "tergov xatosi" obyektiv mavjud bo'lgan kategoriya bo'lib, qonunchilik tartibida u bekor qilinishi mumkin emas. Tergov xatosi bo'lgan, mavjud va kelgusida bo'lar ekan, uni bartaraf etish mexanizmlari mavjud bo'lishi talab qilinadi. Qo'shimcha tergov ana shunday mexanizmlardan biri edi. Uni tugatib, qonun chiqaruvchi hech qanday boshqa muqobilini taklif qilmadi, natijada amaliyotda jinoyat-protsessual qonunining ayrim normalarini qo'llashda bartaraf etib bo'lmaydigan qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi [21].

Sud muhokamasi bosqichi jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayyorlash bosqichidan bir qator protsessual jihatlari bilan farqlanadi. Jumladan, sud muhokamasi bosqichida jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayyorlash bosqichidan farqli ravishda sud barcha masalalarni sud protsessida taraflar ishtirokida hal qiladi.

Sud muhokamasi bosqichi qat'iy tartibga solingan bo'lib, ishni sudga qadar yuritish bosqichida amal qilmagan prinsiplar, shu jumladan, sudda jinoyat ishlarining oshkora ko'rilishi va tortishuv prinsipi to'liq amal qiladi. Sud faqat sud majlisida tekshirilgan dalillarga asoslanib hukm chiqaradi. Mazkur bosqichda tergov xatolari sud tomonidan kuzatish, analiz va sintez, qiyoslash, induktiv va deduktiv usullar yordamida aniqlanishi mumkin [22, 45-46-b.].

Sud ishlarini yuritishda xatolarni aniqlash va bartaraf etish muammolarini o'rganish, uning aniq huquqiy mezonlar mavjud bo'lmagan, umumhuquqiy yoki tarmoq prinsiplari amal qiladigan sohalarida ko'proq uchrashini ko'rsatadi (misol uchun, asoslilik, dalillarning to'liqligi) [23, 20-23-b.].

Sud muhokamasi bosqichining asosiy maqsadi protsessual xatolarni aniqlash emas, balki ularni aniqlash va bartaraf etish orqali adolatli qaror chiqarish hisoblanadi. Ya'ni protsessual xatolarni bartaraf etish adolatli qaror qabul qilish vositasi bo'lib, demak, protsessual xatolarni bartaraf etishning samaradorligi sud qarorlarining adolatililigiga va oqilona muddatlarda odil sudlovga erishish huquqini ta'minlashga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Sud muhokamasining markaziy qismi bo'lgan sud tergovida tergov organi tomonidan ayblovga asos qilib olingan barcha dalillar, shu jumladan, ularni to'plash, qayd etish va baholashning qonuniyligi to'liq tekshiriladi. Surishtiruvning, dastlabki tergovning to'liq emasligini yoki jinoyat-protsessual qonuni normalari jiddiy buzilishlarini faqat sud tergovida bartaraf etish mumkin.

1. Dalillar maqbulligi qoidalarini buzish o'z-o'zidan dalilning maqbul emasligini keltirib chiqaradi, sababi hukmda maqbul bo'lmagan dalillarga asoslanish mumkin emas. Sud muhokamasida dalilni maqbul emas deb topish protsessual xatolarni bartaraf etishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanishiga qaramasdan, uni qo'llashda bir qator muammolar mavjud.

Jumladan, sud amaliyoti ishda davlat ayblovini qo'llovchi prokuror tomonidan dalilni maqbul emas deb topish haqida iltimosnoma deyarli kiritilmasligini ko'rsatadi. Albatta, prokuror tomonidan bunday iltimosnoma kiritilishi uning o'zi ilgari surgan ayblov natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatishini hisobga olsak, bunday iltimosnoma kiritilishi mantiqiy ko'rinmaydi. Biroq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Prokuratura to'g'risida"gi Qonun prokuror zimmasiga qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, soddaroq aytganda, qonuniylikni ta'minlash vazifasini yuklaydi. Ya'ni prokuratura faoliyatida ayblovnı quvvatlash funksiyasidan qonuniylikni ta'minlash funksiyasi ustuvorroq ahamiyatga ega ekanligini hisobga olib, sud muhokamasida protsessual xatolarni bartaraf etishda davlat ayblovchisining tashabbuskorligini kuchaytirish talab qilinadi.

Dalillar maqbulligi bilan bog'liq muammolardan yana biri dalillarni olishdagi qonun buzilishini differensiatsiya qilish bilan bog'liq.

Ma'lumki, JPKning 95¹-moddasi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 9-bandida belgilangan dalillarni maqbul emas deb e'tirof etish uchun asos bo'luvchi holatlar ro'yxati ochiq ro'yxat bo'lib, dalillarni qonunga xilof usullar orqali yoki jinoyat protsessi ishtirokchilarini qonun bilan kafolatlangan huquqlaridan mahrum qilish yoki bu huquqlarni cheklash yo'li bilan yoxud ushbu Kodeks talablari buzilgan holda olishning boshqa shakllari ham dalilni maqbul emas deb topishga asos bo'lishi mumkin [16, 17].

Ya'ni amaliyotda dalillarni to'plash tartibini buzishning ayrim shakllarini jiddiy emas deb topib, dalil maqbul emas deb topish haqida iltimosnomani rad qilish holatlari mavjudligi dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalari buzilishi, og'irlik darajasiga ko'ra differensiatsiya qilinmaganligi bilan bog'liq.

Ushbu masalada ilmiy adabiyotlarda ikki xil nuqtayi nazar mavjud:

1) qonun buzilishi natijasida olingan dalillar, qoidabuzarliklar xarakteridan qat'i nazar, maqbul emas deb topilishi lozim. E'tirof etish zarurki, O'zbekiston Respublikasi



Konstitutsiyasining 29-moddasi 4-qismi va JPK 95¹-moddasi aynan shu nuqtayi nazarni ifodalaydi.

Ayrim qoidabuzarliklar dalilning maqbul emasligini keltirib chiqarmasligi haqidagi fikr protsessual normalarning norasmiy iyerarxiyasini shakllantirib, bu muhim bo'lmagan qoidabuzarliklarni sodir etishga bilvosita ruxsat berishi mumkinligi bilan bog'liq;

2) Qonunning faqat jiddiy buzilishi dalillar maqbulligini keltirib chiqarishi haqidagi fikr, faqatgina formal asoslarga ko'ra, dalilning maqbul emas deb topilishi, ya'ni tergov organining xatosi bilan aybdor shaxs oqlanishi – jinoyat protsessi ishtirokchilari, ayniqsa, jabrlanuvchilarning huquqlari buzilishiga olib kelishi mumkinligi haqidagi nuqtayi nazarga asoslanadi. Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorida dalilning maqbul emasligini keltirib chiqaruvchi holatlar ro'yxati berilishi, qonunni qo'llovchiga amalda yopiq ro'yxat mavjudligi haqida, ya'ni sudlar faqatgina Plenum qarorida ko'zda tutilgan hollarda dalilni maqbul emas deb topishi amaliyoti shakllanishi, ya'ni mazkur qaror ochiq ro'yxatni yopiq ro'yxatga aylantirishi bilan xavfli.

Ishni sudga qadar yuritish bosqichida dalilni maqbul emas deb topish masalasi JPKda aniq tartibga solinmagani protsessual xatolarni bartaraf etishning mazkur mexanizmidan samarali foydalanishga to'sqinlik qiladi. Sababi ishni sudga qadar yuritish uchun mas'ul bo'lgan shaxsning ushbu masala yuzasidan xulosasi faqatgina iltimosnomani qanoatlantirish yoki rad qilish qarorida ifodalanadi. Dalilni taraflarning iltimosnomasi, surishtiruvchi yoki tergovchining tashabbusi bilan maqbul emas deb topishning protsessual mexanizmi mavjud emasligi surishtiruvchi va tergovchining ish yakuni bo'yicha dalillarga har tomonlama va to'liq baho berishiga salbiy ta'sir qiladi.

Fikrimizcha, JPKda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror taraflarning iltimosnomasi yoki o'zining tashabbusiga ko'ra dalilni maqbul emas deb topish haqida qaror qabul qilishi alohida ko'rsatilishi talab etiladi. Bundan tashqari, dalillarning maqbul emasligi to'g'risidagi masalani hal qilish tartibi faqatgina dastlabki eshituv bosqichi uchun tartibga solingan. Mazkur masala asosan sud tergoivi bosqichida ko'tarilishini inobatga olsak, sud tergovida dalillarning maqbul emasligi to'g'risidagi iltimosnomani hal qilishning protsessual tartibini JPKda belgilash juda muhim.

JPKning 95¹-moddasi ushbu masalada asoslantirilgan qaror qabul qilishni, binobarin, alohida hujjat shaklida qaror qabul qilishni nazarda tutadi. Biroq alohida xonada (maslahatxonada) chiqarish lozim bo'lgan ajrimlar orasida mazkur ajrim ko'zda tutilmagan.

Mazkur o'rinda "*dalillar asimmetriyasi*" konsepsiyasi alohida o'rganishni talab qiladi. Ushbu konsepsiya qonunni buzgan holda olingan dalillar ayblov asosiga qo'yilishi mumkin emasligi, biroq himoyaning manfaatlarida foydalanilishi mumkinligini anglatadi. Ya'ni dalillarni to'plash vakolati surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, zimmasiga yuklatilgan ekan, protsessual sanksiya sifatida dalilni maqbul emas deb topish oqibatlari ham faqatgina ayblov tomonga qo'llanishi talab etiladi.

Himoya tarafi dalillarni to'plashda ishtirok etmasligi, ayblov tomonidan yo'l qo'yilgan qonun buzilishlariga javob bermasligi sababli ayblov tarafi tomonidan qonun buzilishi uning uchun salbiy oqibatlar keltirib chiqarmasligi kerak. Ya'ni mazkur konsepsiyaning mohiyati ayblov maqbul bo'lmagan dalillarga tayanish huquqiga ega emasligi, himoya tomoni aksincha, mazkur huquqqa egaligida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi ham dalillar maqbulligini aynan dalillar asimmetriyasi nuqtayi nazaridan qo'llash haqida Plenumning 2018-yil 24-avgustdagi 24-sonli "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori 1-band 4-xatboshisida "Maqbul bo'lmagan dalillar yuridik kuchga ega bo'lmay, ulardan JPK 82-84-moddalarida nazarda tutilgan holatlarni isbotlash uchun foydalanish hamda ularni *ayblov asosiga* qo'yish mumkin emas", – deya tushuntirish berganidan anglash mumkin.

Biroq Plenum qarorining 13-bandida *ish bo'yicha har qanday qaror qabul qilishda* maqbul bo'lmagan dalillarga asoslanish mumkin emasligi haqida tushuntirish berilgani yuqoridagi fikrni inkor qiladi. Mazkur kolliziyani bartaraf etish uchun JPKda ushbu masala yuzasidan aniq yechim berilmaganini qonundagi bo'shliq deb atashimiz mumkin.

Demak, sud tergovi bosqichida protsessual xatolarni ikki xil shaklda bartaraf etish mumkin:

1) dalilni nomaqbul deb topish yoki tergov tomonidan nomaqbul deb topilgan dalilni maqbul deb topish;

2) tergovdagi bo'shliqlarni to'ldirish uchun qo'shimcha tergov harakatlari o'tkazish.

Protsessual xatolar qonuniylik va asoslilik tushunchalari bilan bevosita bog'liq, sababi protsessual faoliyatning qonuniy yoki asosli emasligi uning xatoligini anglatadi.

Keng ma'noda qonuniylik deganda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ushbu kodeks va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga aniq rioya etishlari va ularning talablarini bajarish tushuniladi.

Jinoyat-protsessual qarorlarining qonuniyligi deganda quyidagilar tushuniladi:

1) qarorning vakolatli subyekt tomonidan qabul qilinishi;

2) qaror qabul qilishning jinoyat-protsessual qonunida belgilangan shakliga amal qilinishi;

3) moddiy va protsessual qonun normalarining to'g'ri qo'llanishi;

4) qarorning qonunda belgilangan talablariga ham shakl, ham mazmun jihatdan muvofiqligi.

Protsessual qarorlar va harakatlarning asoslilikini tekshirish xatolarni aniqlashning asosiy vositasi hisoblanadi.

Amaliyotda eng ko'p uchraydigan xatolardan biri yetarli asoslarsiz protsessual harakatlarni o'tkazish va protsessual qarorlar qabul qilish hisoblanadi. JPK protsessual harakatlar va protsessual qarorlar qabul qilishning faktik asosi sifatida "yetarli asoslar" atamasini qo'llaydi. Jumladan, yetarli asoslarning mavjudligi jinoyat ishini qo'zg'atish, protsessual majburlov choralarini qo'llash, shaxsiy tintuv va olib qo'yish, ushlab turish muddatini qo'shimcha qirq sakkiz soatga uzaytirish, ayblanuvchini,

sudlanuvchini lavozimidan chetlashtirish, ayblov xulosasi va dalolatnomasini tuzish, yetarli ma'lumotning mavjudligi tintuv o'tkazish, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash uchun asos bo'lishi belgilangan.

Asoslilik protsessual harakatni o'tkazish yetarli faktik ma'lumotlarning mavjudligini anglatadi. Biroq asoslilik tushunchasi isbotlash standartlari bilan bevosita bog'liq. Jumladan, tintuv o'tkazish uchun faqatgina *yeterli asoslar* talab qilinsa, shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish uchun har qanday shubhadan xoli bo'lgan asoslar talab qilinadi. Ya'ni asoslilik mutlaq tushuncha bo'lmasdan, protsessual qarorlardan kelib chiqib differentsiatsiya qilinadi.

Ishni sudga qadar yuritish bosqichida yo'l qo'yilgan protsessual xatolarni sud tomonidan bartaraf etish sudning protsessual vakolatlarini amalga oshirish orqali mazkur xatolarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan faoliyatida namoyon bo'ladi. Mazkur faoliyat qo'shimcha protsessual harakatlar o'tkazish va protsessual qarorlar qabul qilishda ifodalanadi.

Sud tergovi bosqichida JPKning 173-moddasiga muvofiq, ekspertiza tayinlash shart bo'lsa-da, ekspertiza tayinlanmagan holatlarda ekspertiza tayinlash, zarur tergov harakatlari o'tkazilmagan hollarda sud muhokamasida ushbu tergov harakatlarini o'tkazish protsessual xatolarni bartaraf etishning protsessual vositalari hisoblanadi.

JPKning 416-moddasi sudlanuvchini yangi ayblov bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortish asoslarini aniqlash haqida sud ajrimi ijrosi uchun bir oygacha muddat berilishini nazarda tutadi.

Tahlillar JPKning 416-, 417-moddalari tartibida tayinlangan ajrimlarning ijrosi o'z vaqtida yoki umuman ta'minlanmaganligi sudlar tomonidan mazkur jinoyat ishlarini muhokama qilish muddatlari cho'zilib ketishiga sabab bo'layotganini ko'rsatmoqda. Xususan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, JPKning 416-, 417-moddalari tartibida ajrim chiqarilgan ayblov xulosasi bilan kelib tushgan jinoyat ishlarini muhokama qilish muddati 77 ta ish bo'yicha 2 oydan 4 oyga qadar, 23 ta ish bo'yicha 4 oydan 5 oyga qadar, 13 ta ish bo'yicha 5 oydan ortiq muddat davom etgan.

Fikrimizcha, sudlanuvchi e'tiroz bildirmagan taqdirda sud muhokamasining o'zida ayblovnig'irrog'i bilan yoki haqiqiy ahvolga ko'ra dastlabki ayblovdan jiddiy farq qiladigan ayblov bilan almashtirish tartibi belgilanishi protsessual tejamkorlik g'oyasiga muvofiq bo'ladi, sababi ishni ko'rish va shaxsga nisbatan protsessual majburlov choralari qo'llangan muddat qisqaradi, bu esa sudlanuvchining manfaatlariga ham mos keladi.

Demak, protsessual xatolarni bartaraf eta oladigan yangi protsessual shaklni yaratishning ikkinchi sharti ayblovnig'irrog'i bilan sud muhokamasida o'zgartirishning yangi tartibini joriy qilish hisoblanadi.

Sud muhokamasi doirasiga sovet va postsovet huquqi uchun an'anaviy bo'lgan yondashuvni saqlab qolgan holda hech qaysi postsovet davlati hech qachon ishni qo'shimcha tergovga qaytarishning aqalli bitta asosidan xalos bo'lishga muvaffaq bo'lmaydi [20, 54-b.]. Jumladan, Fransiya JPKning 389-moddasida belgilangan

avertissement instituti sud muhokamasida ayblovni og'irrog'iga o'zgartirish masalasini aynan shunday tartibda hal qiladi. Germaniya JPKda ham sudlanuvchi e'tiroz bildirmagan taqdirda shu tartibda ayblov og'irrog'iga o'zgartirilishi mumkin.

JPKning 382-moddasiga ko'ra, surishtiruvchilar va tergovchilarning, shuningdek, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining qonunga xilof hamda asossiz qarorlarini bekor qilish prokurorning vakolati hisoblanadi.

Mazkur muammoga JPKda sud muhokamasida sudning faollik darajasiga kompleks yondashuv mavjud emasligi ham sabab bo'ladi.

Ya'ni JPKning 22-moddasi sudning zimmasiga haqiqatni aniqlash majburiyatini yuklaydi, buning uchun sud o'z tashabbusi bilan dalillarni to'plashi, ekspertiza tayinlashi, sud tergovini yangidan boshlashi mumkin. Ya'ni JPK sud tergovida sudning faolligini nazarda tutadi. Biroq JPKning 416-, 417-moddalarida ko'rsatilgan masalalarni hal qilishda sudning vakolatlari asossiz cheklanganini ko'rishimiz mumkin.

JPKning umumiy qismi sud muhokamasida moddiy haqiqatni aniqlash konsepsiyasiga asoslansa-da, JPKning 416-, 417-moddalari protsessual haqiqat, ya'ni taraflarning dispozitiv pozitsiyasidan kelib chiqib masalani hal qilishni talab qiladi.

JPKning 416-, 417-moddasida belgilangan mexanizm faqatgina taraflarning iltimosnomasiga asosan ishlashi, sud o'z tashabbusi bilan ushbu masalani hal qila olmasligi natijasida JPKning umumiy prinsiplariga zid bo'lgan amaliyot shakllandi.

Jumladan, sudlanuvchiga nisbatan ayblovni og'irrog'i bilan yoki haqiqiy ahvolga ko'ra dastlabki ayblovdan jiddiy farq qiladigan ayblov bilan almashtirish uchun asoslar aniqlangan, biroq taraflar iltimosnoma bermagan taqdirda sud ishni ayblov doirasida ko'rib, hukm chiqaradi. Hukmda ishning haqiqiy holatlari va haqiqatda sudlanuvchining qilmishi kvalifikatsiya qilinishi zarur bo'lgan moddani ko'rsatadi, biroq tergov organi tomonidan e'lon qilingan ayblov doirasida ish ko'rib chiqilgani qayd etiladi. Bunday holatda sud hukmining qonuniy va adolatli ekanligi shubha ostida qoladi. Sababi JPKning 489-moddasida jinoyatning Jinoyat kodeksining qo'llanishi lozim bo'lgan moddasi (moddaning qismi, bandi) o'rniga boshqa moddasi (moddaning qismi, bandi) bilan tavsiflangani Jinoyat kodeksi normalarining noto'g'ri qo'llanishi deb e'tirof etiladi.

Sud dastlabki ayblovdan jiddiy farq qiladigan ayblov bilan almashtirish uchun asoslarni aniqlasa-da, biroq buni bartaraf etishga ojizligi, sudning mustaqil hokimiyat sifatidagi mavqeyi, adolat va qonun ustuvorligi prinsipiga salbiy ta'sir o'tkazadi.

Vaholanki, shaxsni aybli yoki aybsiz deb topish sud hokimiyatining mutlaq vakolati bo'lib, sud odil sudlovni amalga oshirishda tergov organining fikriga emas, balki Konstitutsiya va qonunga asoslanishi talab etiladi. Sudda protsessual xatolarni mustaqil ravishda bartaraf etish vakolatining mavjud emasligi, sudning asosiy vazifasi bo'lgan odil sudlovni amalga oshirishga to'sqinlik qiladi.

Biroq tahlillarga ko'ra, deyarli barcha hudud sudlarida JPKning 416-, 417-moddalari tartibida chiqarilgan ajrimlar bilan surishtiruvchi va tergovchilarning qarorlari ham bekor qilish amaliyoti mavjud. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil davomida sudlar tomonidan surishtiruvchi va tergovchilarning jami 84 nafar

shaxsga nisbatan JPKning 83-moddasiga asosan qabul qilgan 38 ta qarori, jami 29 nafar shaxsga nisbatan JPKning 84-moddasiga asosan qabul qilgan 16 ta qarori bekor qilingan.

Ya'ni sudlanuvchini yangi ayblov bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortish yoki jinoiy javobgarlikka tortilmagan shaxsning javobgarlik masalasini hal qilish uchun mazkur holat yuzasidan JPKning 83- yoki 84-moddasiga asosan qabul qilingan qarorlar bekor qilinib, so'ng tegishli protsessual harakatlar o'tkazilishi talab etiladi.

Amaldagi JPKda ushbu masalaning yechimi mavjud emasligi protsessual xatolarni bartaraf etish samaradorligiga salbiy ta'sir o'tkazadi.

Amaliyotda JPKning 416-, 417-moddalari tartibidagi ajrimda ko'rsatilgan muddatlarning buzilishi holatlariga sudlar tomonidan faqatgina xususiy ajrim chiqarish yo'li bilan munosabat bildirilishini asosli deb bo'lmaydi, bunday holatlar shaxsning oqilona muddatlarga odil sudlovga erishish huquqini buzishi sababli odil sudlovga hurmatsizlik deb baholanishi va qat'iy choralar ko'rilishi talab etiladi.

JPKning 416-, 417-moddalari tartibidagi ajrimlar yuzasidan qo'shimcha protsessual harakatlarni o'tkazish tartibini belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Oliy Sud Raisi, Ichki ishlar vaziri, Davlat xavfsizlik xizmati raisi va Davlat bojxona qo'mitasi raisi tomonidan 2018-yil 18-iyunda imzolangan "Sudlarning ajrimlariga asosan qo'shimcha protsessual harakatlarni o'tkazish va tergov davomida yo'l qo'yilgan texnik yo'sindagi kamchiliklarni bartaraf etish tartibi to'g'risida"gi qo'shma ko'rsatma ishlab chiqilgan.

Biroq, fikrimizcha, ushbu masalani normativ-huquqiy hujjat hisoblanmaydigan, qo'shma ko'rsatma bilan tartibga solinishi, JPKning 11-moddasida belgilangan qonuniylik prinsipiga muvofiq emas.

Bundan tashqari, sud muhokamasida protsessual xatolarni bartaraf etishning samarali mexanizmlari mavjud emasligi natijasida sudlar JPKning 416-, 417-moddalaridan foydalanish hisobiga mazkur xatolarni bartaraf etishga harakat qilayotganini ko'rish mumkin.

Jumladan, viloyat sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atining 2023-yil 13-sentabrdagi ajrimi bilan tergov organi tomonidan sudlanuvchi S.ga ham JK 273-moddasining 5-qismi bilan ayblov e'lon qilingan bo'lsa-da, ayblovda S.ning ham qachon, qayerda, kimga va qancha miqdorda giyohvandlik moddasi sotgani qayd etilmagani sababli O'zbekiston Respublikasi JPKning 416-moddasida nazarda tutilgan qo'shimcha protsessual harakatlar amalga oshirish uchun prokurorga yuborilgan.

Prokuror iltimosnomasida tergov organi tomonidan S. va D. ga O'zbekiston Respublikasi JK 273-moddasining 5-qismi bilan ayblov e'lon qilingan bo'lsa-da, ayblovda JK 273-moddasining 5-qismi bilan qo'yilgan ayblovning obyektiv tomoni, ya'ni D qachon, qayerda va qancha miqdorda giyohvandlik moddasini sotgani qayd etilmagani sababli sudlanuvchilar D. va S.ga nisbatan e'lon qilingan ayblovni to'ldirish yuzasidan tegishli protsessual harakatlarni o'tkazish uchun tegishli materiallarni JPKning 416-moddasi tartibida prokurorga yuborishni so'ragan.

Ya'ni bu yerda yangi ayblov bo'lmasa-da ayblovni to'ldirish, aniqrog'i, ayblov xulosasi JPKning talablari buzilgan holda tuzilgani uchun ish prokurorga yuborilgan.

Qashqadaryo viloyat sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atining 2024-yil 11-yanvardagi ajrimi bilan O'zbekiston Respublikasi JKning 266-moddasi 1-qismi bilan sudlanuvchi M.ga oid jinoyat ishi bo'yicha javobgarlikka tortilmagan boshqa shaxslarning xatti-harakatlariga huquqiy baho berish yoki ayblovni to'ldirish uchun qo'shimcha protsessual harakatlar o'tkazish Dehqonobod tumani prokuroriga topshirilgan.

Bunga asos sifatida tergov organi va sud M. transport vositasini boshqarib, mazkur jinoyat sodir etishi chog'ida qonuniy hujjatlari bo'lgan-bo'lmagani aniqlanmagan, bu ayblovning zaruriy belgisi hisoblansa-da, ushbu og'ir yuk avtomashinasi aynan qaysi yuridik shaxs yoki kimning tasarrufida bo'lgan avtomashinani boshqargani ayblov xulosasida va hukmda aks ettirilmagani ko'rsatilgan.

Bundan tashqari, protsessual xatolarni bartaraf etishning JPKning 416-, 417-moddalarida belgilangan tartibda bir qator zaif jihatlari mavjud.

Jumladan, ajrim ijrosi prokurorga yuborilgan ish yuzasidan ishni to'xtatish yoki tugatish uchun asoslar yuzaga kelganda qanday yo'l tutiladi? Buning natijasida jinoyat ishining keyingi taqdiri va ish yuzasidan yakuniy qaror qabul qilishga vakolatli subyektlar masalasida noaniqlik yuzaga keladi.

Garchi qo'shma ko'rsatmaning 10-bandida jinoyat ishida ilgari ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilingan shaxsni JPKning 83- moddasi va 84-moddasi 1- va 5-qismlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra reabilitatsiya qilish uchun asoslar yoki ishni yuritishga to'sqinlik qiluvchi holatlar aniqlangan taqdirda, to'plangan dalillar qaror qabul qilinmasdan, prokuror orqali sudga yuborilishi belgilangan bo'lsa-da, tergov organi tomonidan mazkur talabga rioya qilinmagan holatlar mavjud.

Jumladan, jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudining 2022-yil 21-yanvardagi ajrimiga ko'ra, JK 276-moddasi 2-qismining "b" bandi bilan ayblangan B. va boshqalarga oid jinoyat ishi yuzasidan JPKning 416-moddasi tartibida ajrim chiqarilib, tuman prokuraturasiga yuborilgan.

Tergov bo'linmasining 2022-yil 20-fevraldagi qaroriga ko'ra B.ning harakatlarida JK 276-moddasi 2-qismining "b" bandida nazarda tutilgan jinoyat alomatlari mavjud bo'lmagani sababli jinoyat ishining unga oid qismi Qo'shma ko'rsatmaning yuqoridagi bandiga zid ravishda JPK 83-moddasining 2-qismiga asosan tugatilgan holda jinoyat ishining boshqa shaxslarga oid qismi tuman sudiga qaytarilgan. Ya'ni sudga berilgan shaxsga nisbatan tergov organi tomonidan qaror qabul qilingan.

Ma'lumki, jinoyat protsessida sudning funksiyasi faqatgina ishni ayblov doirasida hal qilishdan iborat bo'lib, ayblovni shakllantirish va sud muhokamasida qo'llab quvvatlash prokurorga yuklatilgan. Binobarin, prokuror jinoiy ta'qibni amalga oshirar ekan, jinoiy ta'qibni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi yoki undan voz kechish vakolatiga ega. Ya'ni mazkur holatda garchi sudning ajrimi majburiy bo'lsa-da, qo'shimcha protsessual harakatlarni o'tkazish natijasida shaxsni yangi ayblov bo'yicha javobgarlikka tortish uchun asoslar aniqlanmaganda ishni sudga yuborish maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

Binobarin, mazkur muammoning protsessual yechimini izlash talab qilinadi, sababi sudning ajrimi yuzasidan qo'shimcha protsessual harakatlar natijasida shaxsga



nisbatan jinoyat ishi tugatilishi natijasida jinoyat ishi sudning ixtiyorida qoladi, biroq sud mazkur ish bo'yicha protsessual qaror qabul qila olmaydigan vaziyat yuzaga keladi. Bunday holatlarda prokuror ayblovdan voz kechishi va ish prokurorga qaytarilishi taklif qilinadi.

JPKning 416-, 417-moddalarida qo'shimcha protsessual harakatlar o'tkazish haqida ajrim ijrosi yuzasidan surishtiruvchi va tergovchining protsessual faoliyati JPKda aniq tartibga solinmagan.

RF Oliy Sudi Plenumi 2004-yil 5-martdagi qarorida ushbu masala yuzasidan ish sud tomonidan prokurorga qaytarilganidan so'ng prokuror yoki uning ko'rsatmasi bilan surishtiruvchi yoki tergovchi aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan tergov yoki protsessual harakatlarni o'tkazishga haqli ekanligi, biroq surishtiruv yoki dastlabki tergovning to'liq emasligini bartaraf etishga haqli emasligi haqida tushuntirish bergan.

Sudda muhokama qilinayotgan ish bo'yicha ayblov tomonga surishtiruv yoki dastlabki tergovning to'liq emasligini bartaraf etish imkoniyatining takroran berilishi, albatta, ayblov tomonning imkoniyatlarini kengaytiradi. Sababi u himoyaning suddagi pozitsiyasidan kelib chiqib isbotlash predmetini kengaytirish, qo'shimcha dalillar yig'ish imkoniga ega bo'ladi. Bu, o'z navbatida, himoya tarafining ahvolini og'irlashtiradi.

Amaliyotda sudlanuvchini yangi ayblov bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortish haqida ajrim ijrosi yuzasidan qo'shimcha protsessual harakatlar o'tkazish natijasida sudning ajrimida ko'rsatilmagan yangi jinoyatlar, ya'ni yangi epizodlar aniqlanishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, qo'shimcha protsessual harakatlar faqatgina sudning ajrimida ko'rsatilgan doirada amalga oshirilishi zarur, boshqa yangi jinoyatlar aniqlangan taqdirda ushbu holat yuzasidan yangi jinoyat ishi qo'zg'atish masalasi protsessual tartibda hal qilinishi zarur.

JPKning 416-, 417-moddalari sud ajrimida ijrosi bir oygacha muddatda ijro qilinishi belgilangan bo'lsa-da, sud amaliyoti mazkur muddat buzilgan hollarda, sudning protsessual vakolatlari faqatgina xususiy ajrim chiqarish bilan cheklanganligini ko'rsatadi.

Sababi JPKda mazkur protsessual muddatni buzish oqibatlari aniq belgilanmagan. Vaholanki, mazkur muddatning buzilishi sudlanuvchilarni qamoqda saqlash muddatlariga ta'sir qiladi. Ya'ni qo'shimcha protsessual harakatlar tergov organi tomonidan amalga oshiriladi, biroq protsessual muddatlarning buzilishi uchun javobgarlik sudning zimmasida qoladi.

Shu sababli JPKda mazkur protsessual muddatdan so'ng qo'shimcha protsessual harakatlar o'tkazishga yo'l qo'yilmasligi va mazkur muddatni uzaytirish faqatgina sud tomonidan prokurorning iltimosnomasiga asosan amalga oshirilishi belgilanishi talab etiladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqoridagilarga ko'ra, protsessual xatolarni bartaraf etishning JPKning 416-417-moddasida belgilangan protsessual mexanizmining quyidagi salbiy jihatlari mavjudligi haqida xulosa qilishimiz mumkin:

1. Mazkur institut jinoyat protsessining umumiy prinsiplari, shu jumladan, odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi (*JPK 12-moddasi*), sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi (*JPK 14-moddasi*), haqiqatni aniqlash (*JPK 22-moddasi*) prinsiplariga mos kelmaydi, sababi sudning ishning haqiqiy holatidan kelib chiqib qonuniy, asosli va adolatli qaror qabul qilish imkoniyatini cheklab, qabul qilinadigan qarorni taraflarning tashabbusiga bog'liq qilib qo'yadi.

2. Qarorning mazmuni faqatgina taraflarning tashabbusiga bog'lanishi sudning mustaqilligini asossiz ravishda cheklaydi.

3. Taraflarning iltimosnomasi mavjud bo'lmagan holda ayblovning noto'g'ri kvalifikatsiya qilinishi bilan sudning kelishishga majburligi adolatsiz qaror qabul qilinishiga sabab bo'ladi va tergovning xulosasini sud uchun majburiy holatga keltiradi.

4. JPKning 415¹-moddasida dastlabki tergovning to'liq emasligini yoki jinoyat-protsessual qonuni normalarining jiddiy buzilishlarini JPKning 416- va 417-moddalariga muvofiq bartaraf etilishi belgilangan bo'lsa-da, amalda mazkur moddalarda yoki boshqa normalarda jinoyat-protsessual qonuni normalarining jiddiy buzilishlarini bartaraf etish tartibi mavjud emas.

5. Ajrim ijrosi prokurorga yuborilgan ish yuzasidan ishni to'xtatish yoki tugatish uchun asoslar yuzaga kelganda jinoyat ishining keyingi taqdiri va ish yuzasidan yakuniy qaror qabul qilishga vakolatli subyektlar masalasi hal qilinmagan.

Xulosalar

Fikrimizcha, yuqoridagi holatlar sudda protsessual xatolarni bartaraf etishning samarali mexanizmlarini yaratmasdan turib qo'shimcha tergovdan voz kechilishining oqibatlari hisoblanadi.

Tergov xatosi tushunchasi va uning turlari, shuningdek, qasddan qilingan qoidabuzarliklardan farqi qonunchilikda belgilanmagani, jinoyat ishlari yurituvda qonuniylilikni ta'minlashga to'sqinlik qiladi.

Ishni sudga qadar yuritish bosqichidagi xatolarning quyidagi belgilarini ajratish mumkin:

- huquqni qo'llashning muayyan sohasi, ya'ni jinoyat protsessida ishni sudga qadar yuritish bosqichida sodir etilishi;

- mazkur xatolar jinoyat ishini yuritish uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilishi;

- harakat yoki qaror bilan ifodalanishi;

bila turib yoki qasddan sodir etilmasligi, ya'ni xato jinoyat tarkibini keltirib chiqarmasligi;

- vakolatli organ sudning protsessual hujjati bilan mazkur xato e'tirof etilishi.

Ishni sudga qadar yuritish bosqichida yo'l qo'yilgan protsessual xatolarni sud tomonidan bartaraf etishning chegarasi quyidagilar bilan belgilanadi:

- sud har qanday holatda jinoiy ta'qib funksiyasini bajarmasligi kerak;

- sud faqatgina protsessual vositalardan foydalanib, protsessual xatolarni bartaraf etishi mumkin;

- protsessual xatolarni bartaraf etish shaxsning protsessual huquqlarini cheklamasligi kerak.



Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan, jinoyat protsessining har qanday bosqichida protsess ishtirokchilarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, shuningdek, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari, jinoyat-protsessual qonuni bilan kafolatlangan huquqlardan mahrum qilgan yoki bu huquqlarni cheklash orqali qonuniy, asosli va adolatli qaror chiqarishga ta'sir qilgan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan qoidabuzarliklar jinoyat-protsessual qonun normalarining jiddiy buzilishi sifatida baholanishi zarur.

